

## **DEVELOPING THE COMPETENCE OF SPECIAL EDUCATORS IN INCLUSIVE EDUCATION**

Kamolova Xurshida Shamshidin qizi

MSPD\_N-U25 Guruh talabasi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali

### **Abstract**

This article presents the specific principles of inclusive education in the process of inclusive education, the care provided by the state to children with disabilities, and methods of motivating students involved in inclusive education.

**Keywords:** Inclusive education, aspect, motivation, musculoskeletal injuries, deafness, blindness, consistency, method, principle.

### **Introduction**

#### **INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA MAXSUS PEDAGOGLARNING KOMPETENTLIGINI RIVOVLANTIRISH**

MSPD\_N-U25 Guruh talabasi Kamolova Xurshida Shamshidin qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim jarayonida bolalarning psixologik, jismoniy, hissiy nuqsonlariga ko'ra o'ziga xos printsiplari, nogiron bo'lgan bolalarga davlat tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rliklari, inklyuziv ta'limga jalb qilingan o'quvchilarni rag'batlantirish usullari keltirilgan

**Kalit so'z:** inklyuziv ta'lim, aspekt, rag'batlantirish, harakat- tayanch a'zolari jarohatlanganlik, karlik, ko'rlik, izchillilik, metod, tamoyil.

Bolalikdan nogiron bo'lgan bolalarga davlat tomonidan ko'rsatilayotgan bunday g'amxo'rliklar qatorida, inklyuziv ta'lim joriy etilgan muassasalarda faoliyat ko'rsatayotgan, zimmasiga davlatimiz siyosatini nogiron bolalarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida va ularni sog'lom tengqurlari qatoriga qo'shilib

uyg'unlashib reabilitatsiya bo'lishiga tayyorlashdek ma'suliyatli vazifani bajarish orqali amalga oshirish yuklatilgan o'qituvchilar va defektologlar faoliyati muhim o'rinda turadi.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarga korreksion-pedagogik yordamni samarali tashkil etish va ularni kasbga yo'llash borasida G.N. Mersiyanova, G.M. Dulnev, V.I. Antipov, V.I. Karvyalis, Ya.Ya. Kravalis, S.L. Mirskiy, Ye.A. Kovaleva, V.F. Machixina, N.P. Pavlova, V.A. Shinkarenko, I.P. Freytag singari sobiq ittifoqlik olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar Respublikamizda imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim-tarbiya berish, ularni jamiyatga integratsiyalash, oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari kabi masalalar S.Sh. Aytmetova, L.R. Mo'minova, I.G. Radisheva, G'.B. Shoumarov, D.A. Gordienko, S.G. Kim, A.Soatov, V.S. Raxmonova, Z. B. Em, G.A. Sodiqova, R.Sh. Shomaxmudova, P.M. Po'latova, D.A. Nurkeldiyeva, M.P. Xamidova, L.Sh. Nurmuxamedova, Sh.M. Amirsaidovalarning izlanishlarida tadqiq etilgan . Zamonaviy maxsus pedagogika sohasidagi qator yutuqlar so'nggi yillarda E.I. Leongard, Ye.G. Samsonova, N.D. Shmatko, T.V. Pelimskaya, I.V. Koroleva, V.I. Pudov, O.V. Zontova, A.D. Salaxova, N.V. Kochegarova, V.N. Svodina kabi yetuk olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari bilan bog'liq. Ularning tibbiyot sohasida hamda pedagogik jarayondagi yutuqlardan keng foydalangan holda olib borgan tadqiqotlari nogiron bolalar ta'limi darajasining oshishiga, inklyuziv ta'limga qamrab olish orqali erta ijtimoiy moslashuviga samarali ta'sir ko'rsatmoqda.

Inklyuziv ta'lim joriy etilgan muassasalarning barcha yunalishlari bolalarning extiyojlaridan kelib chiqqan holda turli pedagogik-psixologik yo'nalishlarda ta'lim jarayonini amalga oshiradilar. Jumladan tayanch a'zolari jarohatlangan yoki zaif ko'ruvchi bolalar ta'limida ham o'ziga xos korreksion ishlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan bo'lib, bu jarayonda o'qituvchi bilan bir katorda defektolog va ota-onalar tomonidan ham amalga oshiriladigan psixoloik ishlar mavjud.

Pedagogik va psixoloik ishlarining mazmuni, har bir inklyuziv o'quv muhitining maksadi va vazifalaridan kelib chikadi va o'qituvchi ishinining mazmuni, faoliyat yo'nalishlarini belgilab beradi. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkin-ki inklyuziv o'quv muhiti o'qituvchilarining ish mazmunida bolalarga tarbiya berish bilan bir qatorda pedagogik yo'nalishdagi ishlarni olib borish ham asosiy o'rin tutadi. Ya'ni o'qituvchi ham ota-onalar bilan hamkorlikda

imkoniyati cheklangan bolalarning ta'limi sifatini oshirishga qaratilgan pedagogik-psixologik ishlarini davom ettiradi, ba'zilarini mustakil ravishda amalga oshiradi.

Inklyuziv o'quv muhitining maqsadi va vazifasi imkoniyati cheklangan o'quvchilarda mavjud kamchiliklarni pedagogik-psixologik usullar yordamida korrektsiya va kompensatsiya qilishga hamda ta'limini yaxshilashga qaratilgan. Ularda mavjud kamchiliklar ta'lim va tarbiya jarayonida muayyan sharoitda maxsus usullarni qo'llagan holda amalga oshiriladi.. Bu jarayon esa o'z navbatida ma'lum aspektlarga: tartib, tizim va qonuniyatlarga bo'ysinadi. Inklyuziv ta'limdagi pedagogik-psixologik aspektlar butun tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalaniladigan qonun-qoidalar majmuasidir. Bu qoidalarga pedagogik jarayon va tarbiyaning mazmuni, usullari, tashkil etish shakllari kiradi. Ammo, inklyuziv ta'lim jarayonida bolalarning psixologik, jismoniy, hissiy nuqsonlariga ko'ra o'ziga xos printsiplardan ham foydalaniladi. Maxsus pedagogikada tarkib topgan va milliy asoslangan pedagogik aspektlar tizimi ta'lim-tarbiyaning hayot bilan bog'liqligini, shaxsiy, jamoada va jamoa orqali tarbiyalashni, pedagogik-psixologik ta'sirning izchilligini va davomiyligini, tarbiyalanuvchi shaxsiga nisbatan talabchanlik bilan hurmatning birligini, ta'lim jarayonining imkoniyati cheklangan bolalarning yosh va individual xususiyatlariga mosligini, ta'lim va tarbiyaning bog'liqligini, ta'lim berish jarayonida atroflicha yondashish printsiplari va aspektlarini o'z ichiga oladi.

Pedagogik-psixologik ta'sirning izchilligi, sistemaliligi, yaxlitligi va uzluksizligi printsiplari ham tarbiyaviy tadbirlarning samarador bo'lishida zaruriy aspektlardandir. Bu aspektlarga amal qilish pedagogika tizimini shunday qurishni taqozo etadiki, uning tarbiyaviy qismlari va elementlari bir-biri bilan yonma-yon bo'lmasdan, yaxlit birlikni tashkil etishi kerak. Pedagogik ta'sirning biror tizimga ega emasligi tarbiyaviy ishga tamomila ziddir. Inklyuziv o'quv muhiti o'quvchilariga nisbatan talablarning turlichaligi ta'lim sifatiga ko'p zarar yetkazadi. Afsuski, amalda ko'pincha shunday bo'ladiki, oila maktab tashabbusini qo'llab-quvvatlashi u yoqda tursin, balki qarama-qarshi ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan o'qituvchilar orasida ham talablar birligi ta'minlanmaydi. Pedagogik-psixologik faoliyat ko'plab kishilar ishtirok etadigan, uzoq muddatli jarayondir. SHu sababli ularning ishida izchillikka, erishish, davomiylikka rioya qilish, o'quvchilarning

tarbiyalanish darajasini, yaqin oradagi rivojlanish zonasini o'z vaqtida aniqlash nihoyatda muhimdir.

Inklyuziv ta'limdagi o'ziga xos pedagogik-psixologik aspektlardan yana biri maktab o'quvchilarining yosh va individual xususiyatlari hamda nuqson turini e'tiborga olishdir. Bu printsiptni amalga oshirish o'quvchilar faoliyatining mazmun va shakllarini ularning yoshi, hayotiy tajribasi, kuchi va imkoniyatlariga muvofiqlashtirishni talab etadi. Ayni vaqtda har bir bola bu alohida dunyodir. SHu sababli tarbiya jarayoni ta'lim jarayoniga qaraganda ham ancha individual bo'lishi kerak. Agar o'qituvchi muayyan paytdagi talab va qiziqishlarga tayanib, ular-ni qondirishni xulq-atvor va faoliyat motivlarining hal qiluvchi negizi bo'lgan yangi talablar va yangi qi-ziqishlarni vujudga keltiradigan shakl va usullarini topa olsa, bu maqsadga erishishi mumkin bo'ladi. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ish olib boradigan o'qituvchi, defektologlar barcha ta'lim-tarbiya jarayonlarida umumiy kamolotida biror nuqsoni bor bolalar bilan ishlaetganligini hech qachon unutmasligi kerak. Shundagina, ular amalda uchrab turadigan har xil ko'ngilsiz, noxush holatlarni to'g'ri tushunadilar va ularning oldini ola biladilar. Aks holda, imkoniyati cheklangan bolalarning nuqsonlari sababli yuz beradigan turli noxush holatlarni tushunib yetmaydilar. Demak, bunday bolalar bilan yakkama-yakka pedagogik-psixologik ish olib borilmaydi.

Pedagogik-psixologik usullar deganda har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish maqsadida bolaning ongi, bilim-ko'nikmalari, irodasi xulq-atvori va munosabatlari tizimiga ta'sir ko'rsatish usulini tushunish kerak.

Xulosa qilib shuni aytishimiz keraki, imkoniyati cheklangan o'quvchilarga nisbatan o'qituvchilar munosabatlarining o'ziga xos jihatlari hamda ularning ta'lim berish uslubi bolaning xulq-atvori, bilim darajasi va rivojlanishida turli chekinishlarga sabab bo'lishi mumkin. Inklyuziv o'quv muhitidagi pedagogik-psixologik muhitni hamda ota-onalarning bolalarga nisbatan tutgan tarbiya usullari va ko'rsatmalarini o'rganish ta'lim jarayonida o'qituvchi, ota-ona va bola o'rtasida qaror topgan shaxslararo munosabatlarning turlarini aniqlashga imkon beradi. Chet el va rus olimlarining tadqiqotlarida imkoniyati cheklangan bolaning ta'limi va tarbiyasi hamda ularga pedagogik-psixologik yordam turlari bilan bog'liq masalalar o'rganilgan. Respublikamizda bu yo'lda olib borilayotgan ishlarni ilmiy va metodik jihatdan yanada takomillashtirish lozim.

### **Foydalanilgan adabiyot ro'yhati:**

1. «Alohida yordamga muhtoj bolalarni ma'naviy va estetik rivojlantirish» mavzusidagi ilmiy nazariy konferensiya materiallari. T.: «Uzinkomsentr», 2002.
2. «На пути к инклюзивной школе» пособие для учителей Региональная общественная организация «Перспектива» Москва 2003г
3. Л. А. Головниц Дошкольная сурдопедагогика . — М.: Просвещение, 2009. —88 .с.
4. Fayziyeva U. Yu. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o'rgatish. : ped. fan. nomz. dis. . . . avtoref. – T.: TDPI. 1994. – 18 b.
5. F. U Qodirova. Boshlang'ich sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilar nutqini shakllantirish. : Ped. fan. nomz. dis. avtoref...– T.:TDPU, 2006. – 20 b.
6. <https://www.uzedu.uz/oz/category/prezident-farmonlari-farmoilyilari-va-qarorlari>
7. Madinakhan, M., & Odinakhan, R. (2023). STAGES OF UPBRINGING AND DEVELOPMENT OF SPEECH-IMPAIRED CHILDREN IN THE FAMILY. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 16, 33-37.
8. Maxmudova, M., & Xasanova, I. (2023). DIZARTRIYA NUTQ BUZILISHI TOVUSHNING TALAFFUZ TOMONIDAN BUZILISHI SIFATIDA. Interpretation and researches, 1.
9. Madinakhan, M., & Iroda, K. (2023). SPECIFIC FEATURES OF DYSARTHRIA SPEECH DISORDER IN CHILDREN WITH SPEECH DEFICIENCY. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 16, 42-45.
10. Saule, Z., & Sobirxonovna, M. M. (2023). DISRUPTION OF SPEECH, WHICH IS NOT VISIBLE IN RETARDATION OF MENTAL DEVELOPMENT. Academia Science Repository, 4, 46-50.
11. Madinakhan, M. (2023). THE THEORETICAL SIGNIFICANCE OF THE DEVELOPMENT OF THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF THE TUTOR OF A SPECIAL EDUCATIONAL INSTITUTION. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(11), 353-356.



12. Shukhratovich, M. K. (2023). WAYS TO OVERCOME SPEECH DEFECTS IN THE EDUCATION OF PARALYZED CHILDREN. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(11), 348-352.
13. Xurshid, M. (2023). Maxsus yordamga muxtoj bolalar va o'smirlarni ijtimoiy reabilitatsiyasida oilaning roli. Confrencea, 12(12), 338-342.
14. Xurshid, M. (2023). Rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar oilalarida oilaviy munosabatlarning rivojlanishi davrlari. Confrencea, 12(12), 332-337.
15. Xurshid, M. (2023). Maxsus yordamga muxtoj bolalar oilalari bilan olib boriladigan psixoterapevtik ish. Confrencea, 12(12), 326-331.
16. Khurshid, M. (2023). Views Of Eastern Thinkers On The Education Of Children With Special Needs. JournalNX, 9(11), 210-215.